

KICHIK MAKTAB YOSHIDA O'QUVCHILAR XOTIRASINING DIAGNOSTIKASI VA KORREKSIYASI

Sharipova Mohinur Zokirjon qizi

Qo'qon universiteti Amaliy psixologiya yo'nalishi talabasi

Ilmiy rahbar: Pedagogik psixologiya kafedrası

katta o'qituvchisi Asilova Sanobar Xatamboyevna

Annotatsiya : Mazkur maqolada kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning xotirasini psixologik jihatdan o'rganish, ularni diagnostika qilish hamda xotira jarayonini rivojlantirishga qaratilgan korreksion ishlar tizimi haqida ma'lumotlar yoritilgan. O'quvchilarda eslab qolish, saqlash va qayta eslash kabi xotira jarayonlarining rivojlanish darajasini aniqlash va ularni psixologik mashqlar orqali rivojlantirish yo'llari haqida fikr va mulohazalar keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: Kichik maktab yoshi, xotira jarayonlari, psixologik diagnostika, bevosita xotira, esda qoldirish, psixologik korrektsiya, psixologik metodika, ijtimoiylashuv, o'quv motivatsiyasi.

Xotirasiz inson: "abadiy go'daklik holatida" qolgan bo'lar edi
I.M. Sechenov

Bugungi kunda kelajagimiz egalari bo'lgan yoshlarning erkin fikrlovchi, barkamol shaxs bo'lib shakllanishi uchun ularni har tomonlama rivojlantirish chora tadbirlari amalga oshirilmoqda. Ularning psixologik, jismoniy va ijtimoiy jihatlarini o'rganilib, o'zlarini erkin tutishi va fikrini mustaqil ifodalashida to'siq bo'ladigan salbiy psixik holatlarni aniqlash hamda bartaraf etish lozimligiga katta ahamiyat qaratilmoqda. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev: "Yoshlarimizning mustaqil fikrlaydigan, yuksak intellektual va ma'naviy salohiyatga ega bo'lib, dunyo miqyosida o'z tengdoshlariga hech qaysi sohada bo'sh kelmaydigan insonlar bo'lib kamol topishi, baxtli bo'lishi uchun davlatimiz va jamiyatimizning bor kuch va imkomiyatlarini safarbar qilamiz" – degan fikrlarida yuqoridagi masalalar naqadar dolzarbligi namoyon bo'ladi.¹ Yoshlarni har tomonlama shakllanishining dastlabki bosqichi bu kichik maktab yoshidir. Kichik maktab yoshi bu ijobiy o'zgarishlar va yangilanishlar davridir. Shuning uchun ham rivojlanishning shu bosqichida har bir bola erishgan muvaffaqiyatlar darajasi nihoyatda muhim hisoblanadi. Agar shu yoshda o'quvchi bilish, o'rganish quvonchini his etmasa, o'qish malakalarini egallay olmasa, do'stlashishni bilmasa o'ziga nisbatan, o'z imkoniyat va layoqatlariga nisbatan

¹ Shavkat Mirziyoyev_Erkin va faravon , demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent- "O'zbekiston"-2016

ma'suliyatli bo'la olmasa, bu ishlarni kelgusida amalga oshirish qiyinroq bo'lib , bolada ruhiy va jismoniy zo'riqishni talab etadi. Negaki, bu holatlar faqatgina yoshlarning bilim olishiga to'siq bo'lib qolmasdan, o'z navbatida shaxsning boshqa psixik jarayonlarning normal rivojlanishida salbiy ta'sir ko'rsatadi. Bunday salbiy holatlardan biri bolalarda kuchli xoxish va diqqatning yetishmasligida deb bilamiz. Kichik yoshdagi bolalarda xotira kuchli rivojlanadi. Kichik bolalar ham vaqt fazoni yaxshi farqlay oladilar. So'z boyligi ortib boradi. Bularning barchasi bolaning kattalar bilan, tengdoshlari bilan muloqotga kirishishi natijasida sodir bo'ladi. Xotiraning rivojlanishi bola bilan ishlashda ta'limning qaysi metodlari ustunligiga uni o'rab turgan muhit idrok obraz bilan qanchalik boyligiga bog'liq kichik maktab yosh davri 1-4-sinf o'quvchilarining yosh oralig'ini o'z ichiga oladi. Bu davrda bola psixikasida muayyan o'zgarishlar sodir bo'lishini kuzatishi mumkin.. Kichik maktab davrida bolaning birinchi bor maktab ostonasiga qadam qo'yishi unda o'quv faoliyatining boshlanishi hisoblanadi. Kichik maktab 6-7 yoshdan 9-10 yoshgacha davom etadi. Uning psixikasi bilim olishga eltadigan darajada rivojlanadi. Kichik maktab yoshidagi bolaning muhim xususiyatlaridan biri unda o'ziga xos ehtiyojlarining mavjudligidir. Bu ehtiyojlar o'z mohiyatiga ko'ra faqat muayyan bilim ko'nikma va malakalarini egallashga qaratilmay balki o'quvchilik istagini aks ettirishdan ham iboratdir. Shu ehtiyojlar asosida bolaning o'z portfeliga shaxsiy o'quv qurollariga dars tayyorlash stoliga kitob qo'yish javoniga ega bo'lish kattalardek har kuni maktabga borish istagi yotadi. Anashu ehtiyoj bola shaxsining shakillanishida shuningdek uning ijtimoiylashuvida katta ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu davrda bola fan asoslarini o'rganish uchun biologik va psixologik jihatdan tayyor bo'ladi. Shaxsning taraqqiyoti , rivojlanishi , yuksak pog'analarni zabt etishi uning xotirasi bilan bevosita bog'liq desak mubolag'a bo'lmaydi . Bolani xotirasi rivojlanishida ota-ona va tarbiyachilarning vazifalari haqida bizgacha juda ulkan me'ros yetib kelgan. Sharq va G'arb allomalarining bu boradagi qarashlari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. Xotira haqidagi dastlabki ilmiy qarashlar Sharq mutafakkirlari va yunon faylasuflari (**Aristotel** va boshqalar) da uchraydi. Xususan, **Farobiy** Xotiraga bilishdagi aqliy jarayonning tarkibiy qismi sifatida qarab, xotirani faqat insonga emas, hayvonga ham xos xususiyat ekanini alohida ta'kidlagan. Fiziologik tadqiqotlarda qisqa va uzoq muddatli xotiralar qayd etilgan. Kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning xotirasi – bu ularning bilish faoliyatida hal qiluvchi o'rin tutadigan, shaxsning ongli rivojlanishida asosiy vosita bo'lib xizmat qiladigan psixik jarayondir. Aynan shu yoshda xotiraning bevosita, ixtiyorsiz va obrazli shakllari faol rivojlanadi. Mazkur tadqiqot doirasida olib borilgan diagnostik ishlar shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning eslab qolish, axborotni ongda saqlash va qayta tiklash qobiliyati individual darajada farq qiladi hamda bu ularning o'quv faoliyatida muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda maktab o'quvchilarining xotirasini rivojlantirish muammosi dolzarb va ijtimoiy ahamiyatga ega. Ko'pincha ota-onalar xotirasi zaifligi sababli bolani o'qitishda qiyinchiliklar bilan psixolog va o'qituvchiga murojaat qilishadi. Bola o'quv materialini yaxshi eslay olmaydi o'rgangan hamma narsani tezda metodi o'rgangan ko'rgan yoki eshitgan narsalarni haqiqatda takrorlay olmaydi. Maktab o'quvchilari past o'quv ko'rsatgichlari bolani ota-onalarini va o'quvchilarni doim hafa qiladi. Bolada muhokama yuritish qobiliyati (uning o'z tajribasi doirasida) paydo bo'ladi. Maktab ta'limining boshlanishi bilan bolalarda tushunchali tafakkur maktabga qadar bo'lganidan tezroq rivojlana boshlaydi. Bu tafakkur jarayonida bola tushunchalar yordamida ish ko'radi. Avvaliga tushunchali tafakkur konkret predmetlar va hodisalar bilan mustahkam bog'langan bo'ladi (konkret tushunchali tafakkur ustun turadi), lekin sekin-asta kichik yoshdagi o'quvchilarda konkret narsadan abstraktlashish (chetga chiqish), umumlashmalar qilish va ma'lum darajada mavhum xulosalar chiqarish (abstrakt tushunchali tafakkur) ko'nikmasi vujudga keladi. Fikrlash jarayonlarining ana shu rivojlanishida o'qish juda katta ahamiyatga ega bo'ladi. U bolalarning tasavvur doirasini va bilimlarini kengaytiradi. Yangi tushunchalarni o'zlashtirish ro'y beradi. Ular bir tizimga keltiriladi. Ko'pincha aqliy xulosalar, shu jumladan shartli giprotetik xulosalar qo'llaniladi.

Xulosa qilib aytganda, kichik maktab yoshida o'quvchilarning xotirasini o'rganish va rivojlantirish – bu nafaqat psixologik amaliyot, balki ta'lim-tarbiya jarayonining ajralmas va dolzarb yo'nalishidir. Bu boradagi tizimli yondashuvlar, diagnostik va korreksion ishlar orqali bolalarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini ta'minlash mumkin bo'ladi. Shuningdek, bu yo'nalishda ota-onalar, o'qituvchilar va psixologlarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev_Erkin va faravon , demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent-“O'zbekiston”-2016
2. G'oziyev E. Ge. “Tafakkur psixologiyasi” uslubiy qo'llanma Toshkent-2002y
3. G'oziyev E. G'. Usmanova Sh.Intellekt psixologiyasi. -Toshkent: Universitet, 1996. – 48b
4. The World youth report on Youth civic Engagement.-NY:united Nations, 2016.
5. Xatamboyevna, A. S. (2023). MAKTABGACHA TA 'LIM TASHKILOTLARIDA TARBIYALANAYOTGAN 6-7 YOSHLI BOLALARNI IJTIMOIIY-HISSIY RIVOJLANISHINING SHART-SHAROITLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(17), 344-350
6. Raximjonovna, U. N. (2023). O 'SMIR YOSHDAGI O 'QUVCHILARDA “TARBIYA” FANINI O 'QITISH ORQALI MUSTAQIL FIKRLASHGA O'RGATISH. Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities, 11(6), 232-237.